



JAHON IQTISODIYOTIDA KRIPTOVALYUTANING O'RNI VA ISTIQBOLLARI

Sanoqulov Asilbek Elbek o'g'li¹, Sharipova Umida Adxamovna²

¹Xalqaro iqtisodiyot va menejment fakulteti 2-bosqich talabasi

² Ilmiy rahbar. Xalqaro moliya va investitsiyalar mudiri

Iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7188290>

ARTICLE INFO

Received: 01st October 2022

Accepted: 05th October 2022

Online: 12th October 2022

KEY WORDS

kriptovalyuta, blokcheyn, bitkoin, tranzaksiya, pul surrogati, ulushbay haq tizimi, moliyaviy integratsiya, deflyatsiya, gibrildi iqtisodiy tizim, bozor kapitalizatsiyasi, xavfsizlik mexanizmlari, fiat valyuta, hesh, psevdanonimlik.

Kashf etilganiganidan beri hali hech qancha vaqt o'tmay turib, kriptovalyuta bozori tartibsiz va misli ko'rilmagan tezlikda rivojlandi. Barchamizga tanish va eng keng tarqalgan kriptovalyuta - bitkoin 2009-yil yanvar oyida ilk bor muomalaga kiritilgandan beri eferium, tezer, solana kabi 550 dan ortiq kriptovalyuta paydo bo'ldi. Kriptovalyutaning xilma-xilligi qanchalik ortmasin ulardan tijoratda va sanoat sektorlarida qo'llanishi hali-hanuz muammo bo'lib kelmoqda. Buning sabablaridan biri shuki, nomlanishida farq qilishiga qaramay, ularning aksariyati yangi virtual valyuta emas, shunchaki bitkoinning arzonroq pul surrogantiga aylanib qolmoqda. Bundan tashqari, dunyo iqtisodi virtual pullarga nisbatan hali aniq qiymat belgilashni va soliq tizimini ishlab chiqishni to'la amalga oshirgani yo'q. Yuqori volatillik

ABSTRACT

Ushbu maqola dunyo iqtisodchilari va biznesdagi muhim shaxslar tomonidan kelajak puli deb atalayotgan kriptovalyutaning iqtisodga ta'siri, afzallikkari va u keltirib chiqaradigan muammolar tahliliga bag'ishlanadi.

tufayli kriptovalyuta sanoatining bozor kapitallashuvi keskin o'zgaradi, lekin shunday sharoitda ham bitkoinning umumiyligi 3,5 milliard dollardan sal ko'proq va bu hozirgi bozor kapitalining taxminan 88% ini tashkil qildi.

Tarixiga to'xtaladigan bo'lsak, elektron valyuta tushunchasi, aslida, 1980-yillarning oxirida yuzaga kelgan. Biroq, kriptovalyutalar 2009-yilda Satoshi Nakamoto tomonidan yaratilgan va hozirgacha shu nom bilan ataladigan bitkoinning katta sahnaga chiqishi bilangina ommalashdi. Aynan shuning uchun ham bitkoin dunyodagi birinchi muvaffaqiyatli markazlashmagan kriptovalyutadir. Qisqa qilib aytganda, kriptovalyuta ham aynan standard valyuta funksiyasini amalgalashadi, lekin unda vaziyatni nazorat qiluvchi yagona hokimiyat apparati mavjud



emasligi sabab uni markazlashmagan valyuta deb atashadi. Kriptovalyutalar kriptografiyadan va qonuniy operatsiyalarni ta'minlash usullaridan foydalangan holda raqamli ma'lumotlarni uzatishga tayanadi. Bitkoin raqamlari tangalar bozorini egallagandan so'ng, valyutani markazsizlashtirish va uni ierarxik hokimiyatdan ozod qilishga erishdi. Buning o'rniiga, jismoniy shaxslar va korxonalar o'zaro foydaluvchidan foydaluvchiga tarzida bitkoin almashish bilan elektron o'tkazmalarni amalga oshiradi. 2011-yil kuzida bitkoinning elektron valyuta bozorida mutlaq dominant maqomiga erishishidan keyin yaratilgan barcha alternativ kriptovalyutalar "Post-bitcoin currencies", ya'ni bitkoin yaratilishidan keyingi davrga oid deb nomlana boshlandi, 2011-yil kuzida Litecoin yaratildi va qisqa vaqt ichida sezilarli muvaffaqiyatga erishdi. Hattoki, 2014-yil fevralda Ripple tomonidan egallab olinmagunicha, dunyoda ikkinchi eng kuchli virtual pul maqomiga egalik qildi. Litecoin kundalik operatsiyalar uchun ko'proq mos keladigan tizim yaratish maqsadida faqatgina tranzaksiya tezligini oshirish orqali bitkoin protokolidan farq qilardi. 2013-yilda ishga tushirilgan Ripple esa bitkoin usulidan tubdan farqlanuvchi modelni yaratdi va shu sabab hozirda ham taxminan 255 million dollarga teng bozor kapitali bilan bitkoindan keyingi o'rnini saqlab qolmoqda. Elektron tangalarning evolyutsion zanjiridagi yana bir e'tiborga molik kriptovalyuta, Peercoin, xavfsizlikni ta'minlash uchun inqilobiy texnologik rivojlanishni qo'lladi va ushbu bozorda o'z tamal toshini qo'ydi. Peercoin bitkoin tomonidan ishlatiladigan ishbay validatsiya qilish texnologiyasi va litecoin gibriddi birlashtiradi va o'z mexanizmi ulushbay

validatsiyani yo'lga qo'yish orqali tarmoq xavfsizligi mexanizmidan foydalanadi.

Bitkoin yaratuvchisi Nakamoto kriptovalyutalarning ahamiyati haqida quyidagi fikrlarni bildirgan: "Internetdagi tijorat elektron to'lovlarni qayta ishslash uchun ishonchli uchinchi tomon sifatida xizmat qiluvchi moliyaviy institatlarga deyarli to'liqligicha tayanib qoldi". Tizim ko'plab o'tkazmalar uchun qo'l kelgan bo'lsa-da, hali-hanuz ishonchga asoslangan modeldan aziyat chekishmoqda. Qolaversa, 3-tomon ham o'rta-vositachi sifatida jarayonda qatnashgani hisobiga o'tkazma xarajatlari ham oshadi va kichik tasodifiy tranzaksiyalar ehtimolini butunlay yo'qqa chiqaradi. Shu sabab, Nakomotoda hech qanday markaziy hokimiyatga bo'ysunmaydigan, vositachi xizmati o'rniiga esa kriptografik dalillarga tayanadigan pulni yaratish g'oyasi paydo bo'ldi. Bu tizimning qo'shimcha ustunliklari sirasiga past o'tkazma stavkalari, kam vaqt sarfi va psevdo-anonimlikni kiritish mumkin.

Bitkoin va boshqa har qanday shu turdagи kriptovalyuta bu – "raqamli belgilari zanjiri" hisoblanadi. "Har bir transfer egasi o'z tangalarini keyingi foydaluvchiga avvalgi o'tkazma heshini va qabul qiluvchining hisob kalitini tanganing oxiriga shifrlangan holatda qo'shish orqali amalga oshiradi. Shu orqali, bitkoin egasining ishtiroti dinamik tarzda dasturga kiritib boriladi. Keyingi bosqichda, ushbu kompyuter kodlarining to'plami shaxsiy gadjetdagi qattiq diskda joylashgan "Wallet" nomli dasturda yoki Coinbase ga o'xshash onlayn hamyonlarda yig'ib boriladi. Xuddi naxt pul yoki qiymatli buyumlarga o'xshab bitkoinlar ham yo'qolishi, o'g'irlanishi yoki yo'q qilinishi mumkin va bunday holatlar ko'p bora kuzatilgan. Britaniyalik shaxs hozirda 7 million dollar qiymatga ega 7000 bitkoin



yig'ilgan qattiq diskini uloqtirgani bilan mashhur bo'lib ketdi. Biroq, bu mashhurlik unga ancha qimmatga tushdi. Hattoki, mashhur zamonaviy bitkoin bozorlaridan biri Mt Goksdan ham 350 million miqdorida bitcoin o'g'irlanishi natijasida inqirozga uchragan. Bu esa kriptovalyuta dunyosida eng dolzarb muammolardan biri bu xafvsizlik ekanini ko'rsatadi.

Bitkoin faqat hisob raqamga maxsus kodlar to'plamini kiritish orqaligini jo'natalishi yoki qabul qilinishi mumkin. Parol esa har o'tkazmadan keyin "blokcheyn" tizimi orqali muntazam almashtirib turiladi. Bu xafvsizlik jihatdan katta ustunlik bersa-da, ichki qiymatning yo'qligi va faqat talab va taklif mutanosibligiga ko'ra o'z qiymatini belgilashi bilan biroz sodda tuzilganini anglatadi, ya'ni bitkoinning qiymat jihatdan oddiy iste'mol tovaridan farqi yo'q. "Fiat valyuta" - qiymati kelib chiqadigan qog'oz puldan farqli o'laroq, Bitkoin na biron bir hukumat tomonidan yaratilmaydi va na hukumat tomonidan qo'llab-quvvatlanmaydi. Shu sabab bitkoinlarni meros qilib qoldirish yoki ehson qilish masalalari tizim bilan yaxshi tanish bo'limgan kishiga ancha-muncha qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Kriptovalyuta so'nggi yarim o'n yillikda erishgan bozor ulushiga qaramay, uning yo'li turbulent edi. Ko'pchilikning ta'kidlashicha, anarxik kriptovalyutaning ahamiyati 2009-yilda omma oldida paydo bo'lgan shov-shuvga nisbatan ancha past bo'lgan. Kriptovalyuta sanoatining o'sishiga ta'sir qilgan va uning rivojlanishi va integratsiyalashuviga ta'sir qilishda davom etadigan asosiy omillardan ikkitasi - bu xalqaro hukumatning kriptovalyutani tartibga solish urinishlari va uning yanada kengroq muomalada bo'lishiga nisbatan

jamoatchilikning noaniq qarashlaridir. Yaqin kelajakda yuqoridagi kamchiliklarning birma-bir to'ldirilishi bilan elektron pullar haqiqatda mukammal moliyaviy vositaga aylanishi ehtimoldan xoli emas.

Xulosa qilib aytganda, kriptovalyutalar hayotimizga olib kiradigan qulayliklari, saqlash uchun aytarlik joy talab qilmasligi, masofadan turib foydalanish mumkinligi va tranzaksiyalar tezligini hisobga olgan holda yaqin kelajakda butun iqtisodni egallab olishi kutilmoqda. Boshqa tarafdan olib qaralganda esa, kriptovalyutaning ishonchli vosita sifatida iqtisodiy agentlar va dunyo mamlakatlarida yoyilishiga hali ko'p vaqt talab etiladigandek tuyuladi.

Birinchidan, bu ko'rinishdagi pul aniq qiymatga ega emas va bu boylikni electron hamyonga qarab baholashda qiyinchiliklar tug'diradi.

Ikkinchidan, kriptovalyuta juda murakkab usullar orqali ishlab topilishi va saqlanishi mumkin. Uni bir akkauntdan boshqa akkauntga esa faqat bir usul orqali o'tkazish mumkin. Va nihoyat kriptovalyuta ko'plab davlatlarning siyosiy-iqtisodiy sektorlari tomonidan to'la tan olinmagan. Amalda faqat Kanada va yana bir qancha davlatlargina unga soliq solish tizimini ishlab chiqishdi. Tahlilim so'nggida shuni bildirib o'tmoqchimanki, kriptovalyuta iqtisodni mutlaq egallab olishi mavhumdir. Chunki, qog'oz pullar kashf etilgan bo'lsada, tangalar ham yo'q bo'lib ketmadi va hozirgacha keng muomalada foydaniladi. Demakki, kriptovalyutalar iqtisodga va moliya tizimiga qo'shimcha xususiyat bo'lib kiradi. Modomiki, ularning absolyut dominantlikka erishish hodisasi yuz bergen taqdirda ham, bu kamida yarim asr talab etadi.



References:

1. Crypto-Currency Market Capitalizations. [Online]. <http://coinmarketcap.com/>
2. Satoshi Nakamoto. (2008) Bitcoin: A Peer-to-Peer Electronic Cash System. <https://bitcoin.org/bitcoin.pdf>
3. David Schwartz, Noah Youngs, and Arthur Britto, "The Ripple Protocol Consensus Algorithm," Ripple Labs Inc.,
4. Scott Nadal Sunny King. (2012, August) PPCoin: Peer-to-Peer Crypto-Currency with Proof-of-Stake. <http://www.peercoin.net/assets/paper/peercoin-paper.pdf>
5. Jordan Lee. (2014, September) Nu. https://nubits.com/sites/default/files/assets/nu-whitepaper-23_sept_2014-en.pdf
6. Bill Chappell. (2013, November) npr. <http://www.npr.org/blogs/thetwo-way/2013/11/27/247577278/man-laments-loss-of-thousands-of-bitcoins-as-value-hits-1-000>
7. Pete Rizzo. (2014, February) CoinDesk. <http://www.coindesk.com/mt-gox-loses-340-million-bitcoin-rumouredinsolvent/>
8. Blockchain info. [Online]. <https://blockchain.info/>
9. Larry Ren, "Proof of Stake Velocity: Building the Social Currency of the Digital Age," 2014.
10. Cynthia Dwork and Moni Naor ,, 1993.
11. Adam Back, "A partial hash collision based postage scheme," 1997.